

**AMALIY MASHG'ULOTLAR JARAYONIDA METAKOGNITIV  
FAOLIYAT TURLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Ziyamova Gulbaxor Tulabayevna**

*Namangan davlat pedagogika instituti, ziyamovag@gmail.com*

*Tel: +998950782582 ORCID: 0009-0005-5140-7112*

**Annotatsiya:** Maqolada zamonaviy ta'limda pedagogik texnologiyaning o'rni, talabalarning tahliliy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishda metakognitiv faoliyatlarni takomillashtirishning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirish, talabalarga o'z bilimlarini ko'paytirishga, shuningdek, o'qish strategiyalarini tanlash va o'zgaruvchan sharoitlarda ulardan samarali foydalanishga imkon yaratadi, yangi g'oyalar yaratishga yordam beradi. Metakognitiv faoliyatlarni takomillashtirish uchun tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** texnologiya metakognitiv faoliyat, metakognitsiya, texnik mexanika,, mashg'ulotlar, yangilik, mavzu, materiallar, zamonaviy iqtisod, fan, madaniyat, texnika, faoliyat, metakognitiv bilim, metakognitiv nazorat, o'z-o'zini baxolash, reflektiv amaliyotlar

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida barcha sohalarni tubdan isloq qilish siyosati bormoqda. Hozirgi dunyo shiddat bilan rivojlanib taraqqiy etar ekan, har bir kishi zamon bilan hamnafas bo'lmosh'i zarur. Shu jumladan ta'lim sohasini tubdan isloq qilish bo'yicha ko'plab salmoqli ishlar olib borilmoqda. Mamlakatimizda samarali texnologik ta'lim tizimini joriy etishga qaratilgan tub islohotlar natijasida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari va axborot-metodik imkoniyatlari kengaytirilmoqda. Shu nuqtai nazardan bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining metodik komponentligini rivojlantirishning amaldagi metodikasi va o'quv-uslubiy ta'minotini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish hamda o'zlashtirish natijalarini ob'ektiv baholash mexanizmlarini ishlab chiqish

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

dolzarb hisoblanadi.

Bugungi kun ta'lim tizimida o'quvchilarning o'z-o'zini baholash va tushunchalarini mustaqil ravishda nazorat qilish qobiliyatlari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Metakognitiv ko'nikmalar, o'quvchilarning o'rganish faoliyatida o'zlarining bilimlarini qanday qo'llay olishlarini tushunishlariga yordam beradi.

Metakongitiv faoliyat bu- bu insonning o'z fikrlash jarayonini tushunish, nazorat qilish va boshqarish qobiliyatidir. Bu tushuncha "meta" (ya'ni "ustidan") va "kognitiv" (ya'ni "bilish") so'zlaridan kelib chiqqan. Ya'ni, metakognitiv faoliyat — bu "bilishni bilish" yoki "fikrlash ustidan fikrlash" deganidir.

Metakognitsiya - o'z o'rganish jarayonini anglash va boshqarish, zamonaviy ta'llimda juda muhim ahamiyatga ega. Metakognitsiya - bu o'z o'rganish faoliyatini anglash va boshqarish qobiliyatidir. Bu atama lotincha "meta" (o'zaro) va yunoncha gnosis (yani, bilish) so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, o'z fikrlash faoliyatini o'rganishga yordam beradi. Metakognitsiya shaxsning o'z bilimini, o'rganish strategiyalarini va o'rganish faoliyatini qanday qabul qilishi, tahlil qilishi va nazorat qilishi o'z ichiga oladi. Bu talabalarga o'z bilimlarini va o'rgatish jarayonlarini samarali boshqarishga yordam beradi. Texnologiya fanlarida metakognitiv faoliyatni rivojlantirish, nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki talabalarni o'z-o'zini baholash, muammolarni hal qilish va o'rganish jarayonini tushunish kabi ko'nikmalarni ham shakllantiradi.

Metakognitsiya ikki asosiy komponentdan iborat: metakognitiv bilim va metakognitiv nazorat strategiyalari. Metakognitiv bilim bu shaxsning o'z bilimlari, o'rganish qobiliyatlari va o'ziga nisbatan tushunchalarni o'z ichiga oladi. U uch asosiy turga bo'linadi: deklarativ bilim, protsedural bilim va konditsional bilim.

**Metakognitiv bilimlar** - O'z o'rganish jarayoni, o'qish strategiyalari va boshqalar haqida bilish.

**Metakognitiv nazorat** - O'rganish jarayonini rejalashtirish, kuzatish va baholash.

Metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirish, talabalarga o'z bilimlarini

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

ko'paytirishga, shuningdek, o'qish strategiyalarini tanlash va o'zgaruvchan sharoitlarda ulardan samarali foydalanishga imkon yaratadi.

Deklarativ bilim bu o'zimiz haqida biladigan bilimlarimiz, masalan, biz qaysi mavzularda yaxshi ekanligimiz yoki qaysi strategiyalar biz uchun samarali ekanligi. Misol uchun, talaba texnologiya yo'nalishida qaysi fizika mavzusini yaxshi bilishini anglaydi, masalan, u texnik mexanika fanlarini yaxshi tushunadi, lekin texnologiya ta'lim metodikasi fanidan qiynalishi mumkin. Talaba qaysi mavzularda qiynalishi mumkin qaysi mavzuni yaxshi bilishini anglaydi, masalan, u zamonaviy texnika va texnologiyalarni yaxshi bilishi talabalarni metakognitiv faoliyatlarini faollashtiruvchi yangi pedagogik metodlarni ishlab chiqish va murakkab masalalarni mustaqil hal qilishga yordam beradi.

Protsedural bilim bu vazifani bajarish uchun qo'llaniladigan usullar va strategiyalar haqidagi bilimdir. Masalan talaba buyum yasash jarayonida qanday qilib matematik muammolarni hal qilish yoki ilmiy tajribalarni o'tkazishni biladi, masalan Guk qonunini qo'llash orqali prujinaning cho'zilishini hisoblash.

Konditsional bilim bu ma'lum bir bilim yoki strategiyaning qachon va qayerda qo'llanilishi kerakligini bilish qobiliyatidir.

Metakognitsiya tushunchasi turli mualliflar va tadqiqotchilar tomonidan turli xil yondashuvlar asosida taxlil qilingan va ta'riflangan. Ushbu ta'riflar va yondashuvlar, o'rghanish faoliyatlarini chuqurroq tushunish va ta'limda samarali qo'llash uchun yetarli imkoniyatlar yaratadi.

Pedagogik nazariyalar va yondashuvlar talabalarning metakognitiv faoliyatlarini rivojlantirishda asosiy vositalar hisoblanadi. Konstruktiv yondashuv, muammoli o'qitish va o'zaro ta'lim kabi yondashuvlar talabalarga o'z bilimlarini mustaqil ravishda tahlil qilish va yangi vaziyatlarga moslashishni o'rgatadi. Bu yondashuvlar talabalarning nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatini beradi va ularni yanada samarali o'rghanuvchilarga aylantiradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Sh.Mirziyoyev. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib – intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisdagi O‘zbekiston republikasi prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, № 11.

2. Abdullaev S. X. O‘qituvchilarining ergonomik madaniyatini rivojlantirish muhitini tashkil etish tizimi va texnologiyasi //Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan). – 2021. – №. 9 (1

3.Ziyamova, G. (2024). Texnologiya fanidan amaliy mashg’ulotlarni tashkil etish hamda samaradoligini oshirishda grafik organayzer texnologiyasidan foydalanish. Journal of universal science research, 2(11), 136-144. (Ziyamova, G. (2024). The Use of Graphic Organizer Technology in Organizing Practical Classes in Technology Education and Increasing Their Effectiveness. *Journal of Universal Science Research*, 2(11), 136-144.)

4. O’rinboyev M.I. Umumiy o’rta ta’lim maktablarida fizika fanini o’qitishda o’quvchilarining metakognitiv faoliyatlarini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)Ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan Dissertatsiya. Namangan-2025.

5.Xudoyqulov SH.S. Ziyamova G.T. O’sarova. О I. TEXNOLOGIYA MASHG’ULOTLARIDA “STACK-N-WHACK” TEKNIKA” SIDAN FOYDALANISH “Ta’lim va taraqqiyot”.Ilmiy-uslubiy jurnal.2025-yil.1-sod

6. Abdullayev S.X. Ergonomik yondashuv asosida bo’lajak texnologik ta’lim o’qituvchisi ergonomik kompetentligini takomillashtirish metodikasi //Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. – 2023. – №. 6. – С. 842-8

7. Мухитдинова, Ж. Р. (2023). РАЗВИТИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ С ПОМОЩЬЮ ДИДАКТИЧЕСКИХ ЗАДАЧ НА ЗАНЯТИЯХ ПО ТЕХНОЛОГИИ ШИТЬЯ. Проблемы современного образования, (2), 240-253.